MAKTABGACHA TA’LIMDA EKOLOGIK TARBIYANI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION VA INTERAKTIV METODLARNING O‘RNI

G‘ulomova Dilgira Dilmurod qizi
Qo‘qon Davlat Universiteti Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (Maktabgacha ta’lim) mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ekologik tarbiyaning mavjud holati, uning yetishmasligi sabablari hamda bu jarayonning bolalar har tomonlama rivojlanishiga ko‘rsatadigan ta’siri ilmiy-amaliy jihatdan tahlil qilingan. Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda dastlabki ekologik tushuncha va ko‘nikmalarni shakllantirishda innovatsion va interaktiv metodlarni (STEAM-texnologiyalar, loyihaviy ta’lim, ekologik laboratoriyalar, interaktiv o‘yinlar) qo‘llashning samaradorligi yoritib berilgan. Shuningdek, mamlakatimizda barqaror rivojlanish va ekologik xavfsizlikni ta’minlashda maktabgacha yoshdan boshlab ekologik madaniyatni shakllantirish bo‘yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta’lim, ekologik tarbiya, innovatsion metodlar, bolalar rivojlanishi, barqaror rivojlanish, STEAM-yondashuv, interaktiv o‘yinlar, ekologik madaniyat.

Kirish

Bugungi kunda jahon miqyosida iqlim o‘zgarishi, resurslarning cheklanganligi va atrof-muhitning ifloslanishi kabi global ekologik muammolar insoniyat kelajagiga jiddiy xavf solmoqda. Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish va ekologik xavfsizlikni ta’minlashning eng samarali va istiqbolli yo‘li — yosh avlodda erta yoshdan boshlab ekologik madaniyat va mas’uliyatni shakllantirishdir.

O‘zbekiston Respublikasida ham ekologik holatni yaxshilash va ta’lim tizimini zamonaviylashtirish borasida davlat darajasida ulkan islohotlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek: «Biz bugun ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish masalasiga kechiktirib bo‘lmaydigan shoshilinch vazifa deb qarashimiz kerak. Ekologik madaniyatni o‘sib kelayotgan yosh avlod

qalbiga bog‘cha yoshidanoq singdirishimiz, ularni tabiatni sevishga va uni asrashga o‘rgatishimiz zarur. Zero, tabiatga bo‘lgan munosabat — bu kelajakka bo‘lgan munosabatdir.» Biroq, zamonaviy maktabgacha ta’lim amaliyotida ekologik tarbiyani tashkil etishda bir qator tizimli muammolar va yetishmovchiliklar ko‘zga tashlanmoqda. Ekologik tarbiya ko‘pincha faqat nazariy va qog‘ozdagi mashg‘ulotlar doirasida cheklanib qolayotgani, amaliy va interaktiv metodlarning yetarli darajada qo‘llanilmayotgani bolalarning har tomonlama va erkin rivojlanishiga o‘zining salbiy ta’sirini ko‘rsatmoqda.

Asosiy qism

1. Maktabgacha ta’limda ekologik tarbiya yetishmovchiligi va uning bolalar rivojlanishiga ta’siri

Hozirgi kunda ko‘plab maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ekologik tarbiya berish jarayoni faqatgina "Tabiat bilan tanishtirish" mashg‘ulotlari doirasidagi qisqa va quruq suhbatlar bilan cheklanadi. Bolalarga tabiat hodisalari, o‘simliklar va hayvonot olami haqida faqat tayyor ma’lumotlar va rasmlar orqali saboq beriladi. Bu esa quyidagi salbiy oqibatlarga olib kelmoqda:

- Bolada intelektual rivojlanishning sekinlashishi: Bola tabiat bilan bevosita muloqot qilmaganda (tuproq, suv, o‘simliklarni ushlab ko‘rmaganda, tajribalar o‘tkazmaganda) unda kuzatuvchanlik, mantiqiy fikrlash va sabab-oqibat aloqalarini anglash qobiliyati sust rivojlanadi.

- Sensor va emotsional rivojlanishdagi uzilish: Zamonaviy bolalarning ko‘p vaqtini raqamli texnologiyalar va binolar ichida o‘tkazishi "loqaydlik" va "ekologik uzoqlashuv"ni keltirib chiqarmoqda. Bolada emotsional intellekt hamda tabiatdagi jonzotlarga nisbatan empatiya (ichki his qilish) shakllanmay qoladi.

Ekologik tarbiyani rivojlantirishda innovatsion va interaktiv metodlar. O‘tkazilgan tadqiqotlar va tajriba-sinov ishlari shuni ko‘rsatadiki, ekologik tarbiyaning samaradorligini oshirish uchun quyidagi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga keng joriy etish lozim:

- STEAM va Ekologik laboratoriya texnologiyasi: MTTlarda kichik "Ekologik laboratoriyalar" tashkil etish orqali bolalarga suvning suzish xususiyati, o‘simliklarning

o‘sish bosqichlari, tuproq turlari va havo tozaligini sodda tajribalar orqali o‘rgatish. Bu usul bolaning ilmiy-tadbiriqchilik ko‘nikmasini rivojlantiradi.

- Loyiha usuli: "Kichik ekologlar", "Chiqindiga ikkinchi hayot", "Mening birinchi niholim" kabi uzoq muddatli kichik loyihalarni amalga oshirish. Har bir bolaga individual mas’uliyat biriktirilishi ularda mas’uliyat hissini shakllantiradi.

- Interaktiv va vaziyatli (Keys-stadi) o‘yinlar: "Chiqindilarni saralash", "Suv tomchisini qutqaramiz", "O‘rmon qoidasi" kabi rolli va didaktik o‘yinlar orqali bolalar muammoli vaziyatlarga to‘g‘ri yechim topishni o‘rganadilar.

Xulosa va takliflar

Maktabgacha ta’limda ekologik tarbiya shunchaki bolalarga tabiat haqida bilim berish emas, balki ularning aqliy, emotsional va shaxsiy rivojlanishining muhim omilidir. Ekologik tarbiyaning yetishmasligi bolalarda dunyoqarashning torayishi va ekologik loqaydlikka olib keladi. Ushbu muammoni bartaraf etish va ta’lim sifatini oshirish bo‘yicha quyidagi amaliy takliflar ilgari suriladi:

- Integratsiyalashgan dasturlarni joriy etish: Maktabgacha ta’lim Dasturida ekologik komponentni matematika, nutq o‘stirish va tasviriy faoliyat mashg‘ulotlari bilan uzviy integratsiya qilish.

- Infratuzilmani boyitish: Har bir maktabgacha ta’lim tashkilotida bino ichida va tashqarisida kichik "Ekologik laboratoriya va tajriba maydonchasi"ni tashkil etish.

- Pedagoglar kompetensiyasini oshirish: Tarbiyachilarni ekologik ta’limda STEAM va interaktiv metodikani qo‘llash bo‘yicha qayta tayyorlash va maxsus ilmiy-metodik qo‘llanmalar bilan ta’minlash.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining O‘RQ-595-son “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida” Qonuni. 16.12.2019

2. Bolalarni maktabga tayyorlash metodikasi darslik / G.M.Nazirova - Toshkent: Bookmany print nashriyoti, 2024.

3. Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish darslik / L.M.Abdunazarov, Sh.Sh.Bo‘ronov - Qo‘qon: 2024.

4. Maktabgacha pedagogika darslik / F.R.Qodirova - Xalqaro pedagogika Akademiyasining akademigi, professor, p.f.d., Sh.Q-Toshpulatova - dotsent, N.M.Kayumova - dotsent, M.NA’zamova- Toshkent: Tafakkur nashriyoti, 2019.

5. Maktabgacha pedagogika darslik / M.Esonova - Toshkent: Ilm va fan nashriyoti, 2023.

